



BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARIDA AKSIOLOGIK POZISIYASINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNIGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR TAHLILI

*Yuldashev Javoxir Abdurahim o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilarida aksiologik pozisiyani shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va bu jarayonga qo'yiladigan zamonaviy talablar tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida fuqarolik pozisiyasi, insonparvarlik, vatanparvarlik, tarixi merosga hurmat kabi qadriyatlarni anglash va qabul qilish mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: aksiologik pozisiya, tarix o'qituvchisi, zamonaviy talablar, ta'lim, qadriyatlar, fuqarolik, milliy tarbiya.

АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ТРЕБОВАНИЙ К СОДЕРЖАНИЮ ФОРМИРОВАНИЯ АКСИОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЗИЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и методологические основы формирования аксиологической позиции у будущих учителей истории, а также современные требования, предъявляемые к этому процессу. Кроме того, освещаются механизмы понимания и принятия таких ценностей, как гражданская позиция, гуманизм, патриотизм и уважение к историческому наследию в образовательном процессе.

Ключевые слова: аксиологическая позиция, учитель истории, современные требования, образование, ценности, гражданственность, национальное воспитание.

ANALYSIS OF MODERN REQUIREMENTS FOR THE CONTENT OF DEVELOPING THE AXIOLOGICAL POSITION OF FUTURE HISTORY TEACHERS

Annotation This article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing the axiological position in future history teachers and the modern requirements set for this process. It also highlights mechanisms for understanding and adopting values such as civic position, humanism, patriotism, and respect for historical heritage in the educational process.

Keywords: axiological position, history teacher, modern requirements, education, values, citizenship, national upbringing.



Kirish: Hozirgi global o‘zgarishlar, axborot texnologiyalarining keng qo’llanilishi va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ta’limning asosiy vazifasi faqat bilim berish emas, balki barkamol, ijtimoiy faol, fuqarolik pozisiyasiga ega shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida aksiologik yondashuv muhim o‘rin tutadi. Bugungi kun talablariga muvofiq, tarix fani nafaqat ilmiy bilim manbai, balki axloqiy, ma’naviy va falsafiy qadriyatlarni shakllantiruvchi muhim vositaga aylanib bormoqda.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilari ana shunday mas’uliyatli vazifani amalga oshiruvchi yetakchi shaxs sifatida, o‘z shaxsiy aksiologik pozisiyasiga ega bo‘lishi, uni ta’lim jarayonida aks ettirishi talab etiladi. Aksiologik pozisiya — bu shaxsning muayyan qadriyatlар tizimiga nisbatan munosabati, faol hayotiy va kasbiy pozisiyasini belgilab beruvchi muhim ruhiy-psixologik tuzilma hisoblanadi. Ayniqsa, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining aksiologik pozisiyasini shakllantirish – nafaqat professional tayyorgarlikning, balki umuminsoniy va milliy qadriyatlар asosida barkamol shaxsni voyaga yetkazishning muhim sharti hisoblanadi. Aksiologik pozisiyasini shakllantirish – nafaqat professional tayyorgarlikning, balki umuminsoniy va milliy qadriyatlар asosida barkamol shaxsni voyaga yetkazishning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar: Ushbu tadqiqotda qo’llangan adabiyotlar aksiologik yondashuvning nazariy va amaliy asoslarini keng qamrab olgan. Jumladan D. Abdurasulova muallifligidagi “Aksiologiya va ta’lim” asarida ta’limda aksiologiyaning o‘rni haqida yozilgan asar, shaxs tarbiyasida qadriyatlarning ahamiyatini asoslab beradi. Uning ta’lim tizimiga integratsiya qilinishi shaxs rivojida hal qiluvchi omil ekanligi ta’kidlangan.

N

Komilovaning “Milliy tarbiya va aksiologik yondashuv” asarida milliy tarbiya va aksiologiyaning o‘zaro bog‘liqligiga urg‘u berilgan bo‘lib, u ta’lim orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish mexanizmlarini yoritadi. Bu fikrlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida muhim o‘rin tutadi. UNESCOning (2019) “Teaching and Learning for a Sustainable Future” dasturi esa barqaror rivojlanish, insoniy qadriyatlар, madaniyatlararo muloqot, fuqarolik mas’uliyati kabi

masalalarga bag'ishlangan bo'lib, aksiologik pozisiyani shakllantirishda xalqaro tajribaga asoslanish imkonini beradi. N.Mahmudov tomonidan "Tarixni o'qitishda interfaol usullar" to'g'risidagi tadqiqotlarida esa ta'lism jarayonida talabalarni faol ishtirokchiga aylantirish, tanqidiy fikrlash va axloqiy tanlov qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Aksiologik pozisiya tushunchasi va uning ta'limdagi ahamiyati Aksiologiya falsafiy ta'limot sifatida qadriyatlarning mohiyati, tabiatni va turmushdagi roli bilan shug'ullanadi. Tarix o'qituvchisi uchun aksiologik pozisiya – bu uning shaxsiy qadriyatlari, fuqarolik pozisiyasi, kasbiy etikasi va ijtimoiy ma'suliyatini ifoda etadi. Zamonaviy ta'limda tarix o'qituvchilar uchun aksiologik kompetensiyaga qo'yiladigan talablar Hozirgi kunda tarix o'qituvchilar faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, yosh avlodda tarixiy ong, milliy g'urur, insonparvarlik, bag'rikenglik, hamkorlikka tayyorlik kabi qadriyatlarni shakllantirishda yetakchi bo'lishi kerak. Bu esa ta'limda interfaol, tarkibiy yondashuvlar, keys-stadi, diskussion mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining aksiologik pozisiyasini shakllantirishda teatral pedagogikaning o'rni Teatr texnologiyalari orqali talabalar nafaqat tarixiy voqealarni his etib, balki insoniy munosabatlar, axloqiy tanlovlar, insoniyat taqdiri uchun mas'uliyat kabi masalalarni chuqur anglaydilar. Bu jarayonda ta'lim mazmuniga emosional ta'sirni kiritish orqali quyidagi aksiologik pozisiya mustahkamlanadi.

1. Ta'lim tizimida aksiologik tarbiyani takomillashtirish bo'yicha takliflar;
2. Pedagogika ta'lim dasturlariga aksiologik bilimlarni qamrab olgan maxsus fanlarni joriy etish;
3. Tarix darslarida faol o'qitish metodlarini qo'llash;
4. Ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga oid keyslardan foydalanish;
5. Pedagogik amaliyotlarda talabalarni aksiologik tahlilga yo'naltirish.

Muhokama va natijalar: Tadqiqot natijalari bo'yicha aniqlanishicha, aksiologik pozisiya tarix o'qituvchisining professional rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Uning faoliyatida shaxsiy qadriyatlarni tizimi, fuqarolik pozisiyasi, axloqiy tanlovlar va jamiyat oldidagi mas'uliyat kabi jihatlar o'ta muhimdir. Ta'lim




jarayonida bu pozisiyani shakllantirishda teatral pedagogika, interfaol usullar va emosional ta'sirlarga boy texnologiyalar samarali hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lif mazmuniga aksiologik yondashuvni integratsiya qilish pedagogik samaradorlikni oshiradi, talabalarning tarixga, insoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini qayta shakllantiradi.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, ta'lif tizimida aksiologik pozisiyani shakllantirish — nafaqat ta'lif sifatiga, balki kelajak avlodning ma'naviy yetukligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bo'lajak tarix o'qituvchilari uchun aksiologik pozisiya — bu ularning faol fuqarolik, insoniy munosabatlar, kasbiy etika va ijtimoiy adolat tamoyillariga sodiq qolish qobiliyatini belgilaydi. Ta'lif jarayonida bu pozisiyani shakllantirish maqsadida interfaol usullar, keys-stadi, teatr texnologiyalari, axloqiy muammolarni muhokama qilish va muloqot asosidagi mashg'ulotlar keng joriy etilishi maqsadga muvofiq. Bu usullar talabalarning hissiy-intellektual faolligini oshiradi, ularni hayotiy va kasbiy tanlovlardida faol shaxs sifatida qaror qabul qilishga o'rgatadi. Shuningdek, ta'lif mazmuniga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un ravishda integratsiya qilish, aksiologik kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirish, pedagogik amaliyotlarda talabalarni real hayotiy vaziyatlar bilan tanishtirish muhim hisoblanadi. Maqolada berilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ta'lif muassasalarida aksiologik pozisiyani shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilayotgan strategiyalar uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bugungi kunda ta'lif tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri – bo'lajak tarix o'qituvchilarida aksiologik pozisiyani shakllantirishdir. Buning uchun ta'lif mazmuni, metodlari va texnologiyalari qayta ko'rib chiqilishi, zamonaviy talablar asosida takomillashtirilishi zarur. Faqat shundagina bilimli, faol fuqarolik pozisiyasiga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglaydigan mutaxassislarini tayyorlash mumkin bo'ladi. Ushbu yondashuv pedagogik amaliyotga yangi mazmun olib kiradi hamda ta'lif samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Abdurasulova D. Aksiologiya va ta'lif. – Toshkent: "Fan", 2021.
2. Komilov N. Milliy tarbiya va aksiologik yondashuv. – Toshkent: "O'qituvchi", 2020.



3. UNESCO. Teaching and Learning for a Sustainable Future. – Paris, 2019.
4. Xalqaro pedagogika jurnali: "Pedagogik innovatsiyalar", №2, 2023.
5. Mahmudov N. Tarixni o'qitishda interfaol usullar. – Samarqand, 2022.